

112. Sonni 9 ga bo'lish

Yondosh mavzu:
xobbi.


Bo'linuvchi, bo'luvchi,
bo'linma.



2 ta cho'pni shunday almashtiringki,
natijada qor parchasi tashqarida qolsin.




1. Plakatga qarang. Unda bolalar qanday xobbilari borligini belgilaganlar. Plakatda necha turdagi xobbilar ko'rsatilgan? Ularni qanday tartibda qo'yish mumkin? Siz xobbinging qaysi turini tanlaysiz?



2. 36 nafar bola futbolga qiziqadi. Hamma bolalarni 9 nafardan qilib guruhlariga bo'lishdi. Nechta guruh hosil bo'ldi?

3. Salima gullarni tomorqaga har bir qatorga 9 tadan qilib o'tqazdi. U 27 ta gulsafsar va 18 ta qo'qongulni nechta qatorga o'tqazgan?

4. Feruza tasmalarni rasmda ko'rsatilgani kabi bo'laklarga bo'ldi. Tasma necha santimetr ekanini toping.





5. Ifodalar tuzing va ularni hisoblang.

7 va 9 sonlari ko'paytmasi;

90 va 9 sonlari bo'linmasi;

7 va 98 sonlari yig'indisi;

107 va 19 sonlari ayirmasi.



6. Jadvalni to'ldiring, javoblarni kamayish tartibida joylashtiring.

Pul banknotlarini yig'ish qanday ataladi?

	K	O	I	I	T	B	A	N	S
a	27	81	36	63	45	90	18	72	54
$a : 9$									



7. Mahmud sportchilar, aktyorlar va qo'shiqchilarning fotosuratlarini yig'adi. Uning albomida 152 ta fotosurat bo'lib, ulardan 56 tasi sportchilarniki, bu qo'shiqchilarnikidan 27 ta ko'p. Uning albomida aktyorlarning nechta fotosurati bor?



8. Marat chizishni yaxshi ko'radi. U uzunligi 8 dm va kengligi 5 dm bo'lgan rasm chizmoqchi. Bu rasmning perimetri qanday bo'ladi? Yuzi qanchaga teng bo'ladi?



9. Hisoblang. Har bir ustundagi misollarda qanday umumiylik bor?

$$42 + 37 + 58 + 63$$

$$7 \cdot 9 + 51$$

$$81 : 9 - 3$$

$$278 - (178 + 56)$$

$$52 + 8 \cdot 9$$

$$72 : 9 - 4$$

$$(279 + 161) - 179$$

$$9 \cdot 9 + 53$$

$$63 : 9 - 5$$



10. Shahzoda qo'g'irchoqlar uchun ko'ylakchalar tikmoqda.

U o'z qo'g'irchoqlari uchun 9 ta ko'ylakcha, singlisining

qo'g'irchoqlari uchun esa 2 marta ko'p ko'ylakcha tikdi.

Shahzoda hammasi bo'lib nechta ko'ylakcha tikkan?



11. Tomonlari 7 cm va 6 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yasang.

Uning perimetri va yuzini toping.